2026-yil
8-son

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 37.035:82-93

Ilyasova Dilshoda Akmal qizi,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti

BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARI VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ESTETIK DIDINI TARBIYALASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK TAVSIFI

Annotatsiya. Maqolada bolalar adabiyoti asarlari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari yoritilgan. Ertaklar, hikoyalar, she’rlar, masallar hamda xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘quvchilarda estetik idrok, ijodiy tafakkur, tasavvur va hissiy sohani rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, interfaol va ijodiy faoliyatni tashkil etish, shuningdek, estetik didni shakllantirish jarayonida oila va maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratilgan. Bolalar adabiyoti asarlaridan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy, estetik va ijodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, estetik did, estetik tarbiya, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, badiiy asar, ijodiy tafakkur, tasavvur, hissiy rivojlanish, oila va maktab hamkorligi, interfaol metodlar.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОСПИТАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВКУСА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В статье раскрываются социально-педагогические особенности воспитания эстетического вкуса учащихся начальных классов посредством произведений детской литературы. Рассматриваются педагогические возможности сказок, рассказов, стихотворений, басен и образцов устного народного творчества в развитии эстетического восприятия, творческого мышления, воображения и эмоциональной сферы учащихся. Особое внимание уделяется учёту возрастных и психологических особенностей младших школьников, организации интерактивной и творческой деятельности, а также сотрудничеству семьи и школы в процессе формирования эстетического вкуса. Обосновывается значение целенаправленного и системного использования произведений детской литературы в духовно-нравственном, эстетическом и творческом развитии учащихся.

Ключевые слова: детская литература, эстетический вкус, эстетическое воспитание, учащиеся начальных классов, художественное произведение, творческое мышление, воображение, эмоциональное развитие, семейно-школьное сотрудничество, интерактивные методы.

SOCIO-PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING AESTHETIC TASTE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH WORKS OF CHILDREN'S LITERATURE

Abstract. This article examines the socio-pedagogical characteristics of developing aesthetic taste in primary school students through works of children's literature. It explores the pedagogical potential of fairy tales, stories, poems, fables, and examples of oral folk literature in fostering students' aesthetic perception, creative thinking, imagination, and emotional development. Particular attention is paid to the age-related and psychological characteristics of primary school students, the organization of interactive and creative activities, and cooperation between the family and school in the process of developing aesthetic taste. The article substantiates the importance of the purposeful and systematic use of children's literature in students' spiritual, moral, aesthetic, and creative development.

Keywords: children's literature, aesthetic taste, aesthetic education, primary school students, literary work, creative thinking, imagination, emotional development, family-school cooperation, interactive methods.

Kirish. Hozirgi vaqtda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim tizimining, shuningdek, jamiyatning muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kitobxonlikni shakllantirish faqat maktab doirasida emas, balki oila–maktab–jamiyat hamkorligi asosida izchil tashkil etilganda samarali natija beradi. Finlandiya, Yaponiya, AQSH va Germaniya ta’lim tizimlarida bolalarni erta yoshdan kitob bilan tanishtirish, oilada birgalikda mutolaa qilish an’analarini rivojlantirish, maktab va kutubxonalar hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarda mustaqil kitobxonlik madaniyati shakllantirilmoqda [2]. Shuningdek, OECDning PISA dasturi doirasida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi xalqaro mezonlar asosida baholanib, mazkur yo‘nalishdagi ta’lim siyosati va metodik yondashuvlar muntazam takomillashtirilmoqda.

Kitobxonlik nafaqat bilim olish vositasi, balki o‘quvchining tafakkuri, dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi muhim omildir. Ayniqsa, milliy ertaklar, hikoyalar, maqollar, dostonlar va rivoyatlar xalqning tarixiy-madaniy tajribasi hamda ma’naviy qadriyatlarining badiiy ifodasi sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy dunyosini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Mazkur asarlar orqali o‘quvchilarda milliy

qadriyatlarga hurmat va sadoqat, mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat, ijodiy tafakkur hamda estetik did kabi sifatlarni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida qator ijtimoiy-pedagogik va psixologik muammolar mavjud. Xususan, o'quvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida jamlay olmasligi, raqamli axborot vositalariga qiziqishning ortishi, tezkor axborot oqimining kuchayishi hamda ayrim oilalarda kitob mutolaasiga yetarlicha e'tibor berilmasligi mazkur jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoitda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy kontentlar asosida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish, interfaol va ijodiy metodlardan foydalanish, o'qituvchi–o'quvchi–ota-ona hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil kitobxonlikni shakllantirish ularning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Kitobxonlik o'quvchini nafaqat bilim olishga, balki mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Shu bois boshlang'ich ta'limda kitobxonlikni rivojlantirishning mazmuni, samarali pedagogik shart-sharoitlari va metodlarini ilmiy jihatdan asoslash, xususan, milliy adabiy kontentlardan samarali foydalanish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kichik hajmli ertak, hikoya va matnlar orqali o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini sodda, qulay va bosqichma-bosqich shakllantirish mumkin. Badiiy kitoblar, xususan, nasriy asarlar o'quvchining his-tuyg'ulari, ichki dunyosi va xulq-atvorini tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Zamonaviy ta'limda kitobning asosiy vazifasi faqat axborot berish bilan cheklanmasligi, u bevosita didaktik tamoyillarga asoslanishi shart emasligi haqidagi ilmiy qarashlar ham mavjud. Shu bilan birga, ayniqsa, bolalar adabiyotining tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlari yuqori bo'lib, u bolaning aqliy, ma'naviy va hissiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bola hayotining dastlabki yetti yilida jismoniy va aqliy jihatdan jadal rivojlanadi. Bu davrda bolaning jismoniy rivojlanishi uchun vitamin va minerallar qanchalik zarur bo'lsa, uning aqliy va ma'naviy kamoloti uchun kitob va mutolaa ham shunchalik muhimdir [6].

Mazkur muammoning turli jihatlari pedagog, psixolog va boshqa soha olimlarining ilmiy tadqiqotlarida keng o'rganilgan. Xususan, N. Egamberdiyeva, M. Quronov, O. Musurmonova, X. Tojiboyeva, G. Tulenova va B. Shermuhammadovlarning ilmiy izlanishlarida ta'lim jarayonida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish hamda milliy qadriyatlarga asoslangan ta'limiy faoliyatni tizimli tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan [2]. Shuningdek, N. Karimova, S. Nishonova va R. Ochilov tadqiqotlarida milliy adabiyot, ertak va rivoyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari, ularni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda

mazkur yondashuvning o‘quvchilarning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishidagi o‘rni tadqiq etilgan.

O‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishga oid ilmiy tadqiqotlarda turli pedagogik model va metodlarga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Dilafruz Mo‘minova boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yinli metodlardan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etgan [6]. Dilraboxon Malikova evristik mutolaa, jamoaviy suhbat va viktorina usullaridan foydalanish orqali maktab o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishning pedagogik tizimini o‘rgangan [3]. Charos Mirxoliqova “O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini Tarbiya darslari asosida tadqiq etish” mavzusidagi izlanishlarida mutolaani rivojlantirish mexanizmlari, nutq faoliyatini takomillashtirish, o‘qish tuzilmasining tarkibiy darajalari hamda uning elementlarini tanlash, saralash va qo‘llash masalalarini o‘rgangan. Shuningdek, didaktik mazmunni jadallashtirish orqali kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlariga e’tibor qaratilgan.

Hafiza Islomova “10–11-sinf o‘quvchilarida badiiy asarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi”, Oysha Qo‘chqorova esa “O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini kitobxonlik asosida shakllantirish” mavzularida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Dinara Muminova va L. N. Golubevaning “Деятельность детской библиотеки по подготовке родителей к семейному чтению как межличностному общению” nomli tadqiqotida bolalarda kitobxonlikni rivojlantirishda pedagog va ota-onaning hamkorligi, oilada kitobxonlik muhitini yaratish, ota-onalar bilan birgalikda “kitob soati”ni tashkil etish, ota-onalar kitobxon guruhlarini shakllantirish hamda bolaga kitob o‘qib berish bo‘yicha ota-onalar o‘rtasida muntazam axborot va tajriba almashishning samarali jihatlari yoritilgan [7].

Yuqoridagi tadqiqotlar o‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ayrim jihatlarini yoritib bergan bo‘lsa-da, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini kompleks va tizimli rivojlantirish masalasi hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, qiziqishlari hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ertak, hikoya, rivoyat va fantastik qissalar kabi badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, milliy badiiy kontentlardan foydalanish, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va mutolaa jarayonini ijodiy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirishga asoslangan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi.

Natijalar. Estetik didning shakllanishi bolalikning ilk davrlaridanoq boshlanadi. Boshlang‘ich yoshda bu jarayon, avvalo, hissiyot, tasavvur va obrazli idrok asosida kechadi. Bola atrofidagi narsa va hodisalarni qiziqish, hayrat va zavq bilan qabul qiladi. Bolalar adabiyoti, musiqa, tasviriy san’at, o‘yin va boshqa badiiy faoliyat turlari orqali mazkur jarayon yanada kengayib, mazmunan boyib boradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik didni shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali pedagogik-psixologik jarayon bo‘lib, uni tashkil etishda o‘quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Mazkur yosh davrida bolalar borliqni asosan hissiy-obrazli tarzda qabul qiladilar. Shu sababli badiiy obrazlar, ranglar, tovushlar, shakllar va estetik mazmunga ega bo‘lgan faoliyatlar ularga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida idrok, tasavvur va hissiyotlar faol rivojlanish bosqichida bo‘ladi. Ularning atrof-muhitdagi go‘zallikni sezish va unga munosabat bildirish qobiliyati estetik tarbiya uchun muhim zamin yaratadi.

Rasm chizish, musiqa tinglash, badiiy matnlarni o‘qish, ijodiy topshiriqlarni bajarish kabi estetik faoliyatlar o‘quvchilarning tasavvuri va ijodiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga, diqqatni jamlash, kuzatuvchanlik va hissiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy adabiyot o‘quvchining ichki dunyosiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, uning estetik his-tuyg‘ularini boyitish va go‘zallikni anglash qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Bolalar dunyosiga kirib borishning eng samarali vositalaridan biri yosh xususiyatlariga mos badiiy adabiyotdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan ertak, hikoya, she’r va dostonlar nafaqat bilim manbai, balki ularning hissiy-estetik dunyosini shakllantiruvchi muhim vositadir. Bunday asarlar orqali o‘quvchilar turli obrazlar, voqealar va badiiy tasvirlar bilan tanishib, atrofdagi borliqni yangicha idrok etishga o‘rganadilar. Shu bilan birga, badiiy asarlar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytirib, ularda go‘zallik, ezgulik va nafosat haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, aynan shu davrda ular go‘zallikni anglash, uni qadrlash va estetik jihatdan baholashga o‘rgana boshlaydilar. Shu nuqtayi nazardan, bolalar adabiyoti vositasida estetik didni tarbiyalash o‘quvchilarning badiiy dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ularning hissiy yetukligi va ma’naviy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalar adabiyoti yosh avlodning ruhiy olamini boyitadigan, tafakkuri va his-tuyg‘ularini uyg‘otadigan muhim badiiy vositadir. Hikoya, ertak, she’r va dostonlarda tasvirlangan obrazlar orqali o‘quvchilarning tasavvuri rivojlanadi, ular turli hayotiy vaziyatlarni obrazli tarzda idrok etishga o‘rganadilar. Masalan, ertaklardagi ijobiy qahramonlarning jasorati, mehr-oqibati, halolligi va ezguligi bolalarda nafaqat axloqiy qadriyatlarni, balki go‘zallik va ezgallik haqidagi estetik tasavvurlarni ham shakllantiradi. Badiiy asarlar orqali o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqalarning kechinmalarini tushunish va ularga hamdard bo‘lish, tabiat hamda jamiyatdagi estetik qadriyatlarni qadrlashni o‘rganadilar.

L. S. Vygotskiyning qarashlarida ham bolaning hissiy va ijodiy rivojlanishida badiiy faoliyatning muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi. Badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar turli hissiy holatlarni boshdan kechiradilar, qahramonlarning kechinmalarini tasavvur qiladilar va ular asosida o‘z munosabatlarini

shakllantiradilar. Bu esa bolaning ichki dunyosini boyitib, hissiy tajribasini kengaytiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi taassurot va obrazlarni qabul qilishga nihoyatda moyil bo‘lib, ularda estetik didning shakllanishi ijodiy tafakkur va tasavvurning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, hikoya va ertaklar o‘quvchilarda empatiya, obrazli fikrlash, tafakkur va hissiyotlarni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy asarlarni o‘qish va muhokama qilish jarayonida o‘quvchi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydi, voqealarga o‘z munosabatini bildiradi hamda go‘zallik va xunuklik, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi farqlarni anglay boshlaydi.

Shunday qilib, adabiyot bolalar uchun o‘ziga xos “hissiyotlar oynasi” vazifasini bajaradi. Murakkab va turli-tuman kechinmalar tasvirlangan badiiy asarlarni o‘qish orqali bola o‘zida mavjud yoki ilgari boshdan kechirmagan hissiy holatlarni anglash imkoniga ega bo‘ladi. Natijada uning hissiy tajribasi kengayib, estetik his-tuyg‘ulari rivojlanadi. Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik didni shakllantirishda bolalar adabiyotidan maqsadli va tizimli foydalanish ularning badiiy idroki, tasavvuri, ijodiy tafakkuri hamda ma’naviy-hissiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama. Innovatsion ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda bolalar adabiyoti va estetik tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligi zamonaviy ta’lim muhitini mazmunan va metodik jihatdan takomillashtirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti vositasida shakllangan estetik did o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, yangi g‘oyalarni ilgari surish va badiiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday jarayonda o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash bilan birga, tasavvurini kengaytiradi, turli obraz va voqealarni idrok etadi hamda dunyoqarashini boyitadi.

Bolalar adabiyotidan samarali foydalanish faqat kitob tavsiya qilish yoki uni o‘quvchiga taqdim etish bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayonda o‘qituvchi va ota-onalarning hissiy hamda psixologik qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Bolaning his-tuyg‘ularini tushunish, unga ijodiy topshiriqlar berish, badiiy asarlarni birgalikda o‘qish va muhokama qilish orqali estetik didni izchil shakllantirish mumkin. Erkin, samimiy va qiziqarli mutolaa muhiti o‘quvchining o‘z fikrini ifodalashiga qulay sharoit yaratib, badiiy asarlar orqali estetik qadriyatlarni anglash jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Bolalar adabiyoti namunalarini pedagogik jarayonga maqsadli tatbiq etish o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari obrazli fikrlashga moyil bo‘lganligi sababli, ertak, hikoya, she’r, masal va xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish ularda estetik taassurotlarni boyitadi [6]. Asar qahramonlarining xatti-harakatlarini muhokama qilish, tabiat tasvirlarini tahlil etish, obrazlarning ijobiy va salbiy fazilatlarini baholash orqali o‘quvchilarda go‘zallik va xunuklik, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi farqlarni anglash ko‘nikmasi shakllanadi. Shu bilan birga, bunday faoliyat

o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

Estetik tarbiya jarayonida oila va maktab hamkorligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning bolaga kitob tanlashda ko‘maklashishi, u bilan birgalikda mutolaa qilishi va o‘qilgan asar yuzasidan suhbatlashishi o‘quvchining kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini oshiradi [7]. Ayniqsa, milliy folklor namunalari, xalq ertaklari va zamonaviy bolalar adabiyotidan uyg‘un foydalanish o‘quvchilarda milliy-estetik qadriyatlarga hurmatni shakllantirish, madaniy merosni anglash va badiiy didni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Bolalar adabiyoti namunalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini shakllantirish va tarbiyalashda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Badiiy asarlar orqali o‘quvchilar nafaqat go‘zallikni idrok etish va baholashni, balki mustaqil fikrlash, ijodiy tasavvur qilish, axloqiy qadriyatlarni anglash va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishni ham o‘rganadilar.

Estetik didni shakllantirish jarayoni muntazam, izchil va o‘quvchilarning yosh hamda individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bunda bolalar adabiyoti namunalarini to‘g‘ri tanlash, ularning mazmunini o‘quvchilarning yosh imkoniyatlariga mos ravishda tahlil qilish, interfaol va ijodiy topshiriqlardan foydalanish muhim pedagogik shartlardan biridir.

Shu asosda boshlang‘ich ta’limda estetik didni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: estetik mazmunga boy badiiy asarlardan tizimli foydalanish; o‘quvchilarning mustaqil kitobxonlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash; badiiy asarlarni muhokama qilishda interfaol metodlardan keng foydalanish; maktab va oila hamkorligini kuchaytirish; milliy va zamonaviy bolalar adabiyoti namunalarini uyg‘unlashtirish. Mazkur yondashuvlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didi, ijodiy tafakkuri, hissiy rivojlanishi hamda ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini kompleks shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bo‘riboyev I. Hamma o‘qiyapti, o‘qing! // Jadid gazetasi. – 2024. – № 50.
2. Mo‘minova D. R. Kitobxonlikni shakllantirishda xorij tajribalari // NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2021. – № 8. – B. 529.
3. Mirxodiyeva Ch. X. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023. – 168 b.
4. Islomova H. A. 10–11-sinf o‘quvchilarida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 52 b.
5. Qo‘chqorova O. O. O‘smir qizlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini kitobxonlik asosida shakllantirish: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2022.

6. Muxammajonova D. M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali. – 2024. – № 5. – B. 1628–1632.

7. Голубева Н. Л. Деятельность детской библиотеки по подготовке родителей к семейному чтению как межличностному общению: научно-методические аспекты: специальность ВАК РФ 05.25.03.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
8-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694